“BOBURNOMA” ASARIDAGI AYRIM TOPONIMLARNING ETIMOLOGIYASI HAQIDA

Kilichev Bayramali Ergashovich
Buxoro davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi professori filologiya fanlari nomzodi
e-mail: buxara-1@inbox.ru
Shabonova Guljamol Abdullo qizi
Buxoro davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi magistranti
e-mail: gulishabonova@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.7670209

Annotatsiya: har bir tilning onomastikasi shu xalq vakillarining milliy o‘zligini, dunyoqarashini, ruhiyatini, xarakter-xususiyatlarini, muayyan mintaqaga mansubligini ko‘rsatib beruvchi manba sanaladi. Shu ma’noda “Boburnoma” asaridagi etimologik topilmalarni tadqiq etish bugungi kun uchun ham dolzarb va muhimdir.

Kalit so‘zlar: etimologiya, oykonim, toponim, tarix, toponimiya, Bobur, Boburnoma, tog‘, dovon, ma’no, sema, lug‘at.

THE ETYMOLOGY OF CERTAIN TOPONYMS IN “BOBURNOMA”

Kilichiv Bayramali Ergashev
Professor of the Department of Uzbek Linguistics and Journalism candidate of philological sciences Bukhara State University
e-mail: buxara-1@inbox.ru
Shabonova Guljamol Abdullo qizi
Master`s student of the Department of Uzbek Linguistics and Journalism Bukhara State University
e-mail: gulishabonova@gmail.com

Annotation: the onomastics of each language is a source that shows the national identity, worldview, mentality, character traits, belonging to a certain region of the representatives of this nation. In this sense, the research of etymological findings in the work “Boburnoma” is relevant and important even for today.

Key words: etymology, oikonym, toponym, history, toponymy, Babur, Baburname, mountain, pass, meaning, sema, dictionary.

НЕКОТОРЫЕ ТОПОНИМИЧЕСКИЕ ЭТИМОЛОГИИ В БОБУРНОМЕ

Киличев Байрамали Эргашевич
Бухарский государственный университет профессор кафедры узбекского языкознания и журналистики кандидат филологических наук
e-mail: buxara-1@inbox.ru
Шабонова Гулжамол Абдулло кизи
Бухарский государственный университет магистрант кафедры узбекского языкознания и журналистики
e-mail: gulishabonova@gmail.com

Аннотация: ономастика каждого языка является источником, показывающим национальную идентичность, мировоззрение, менталитет, черты характера, принадлежность к определенному региону представителей данной нации. В этом смысле исследование этимологических находок в произведении “Бобурнома” актуально и важно даже на сегодняшний день.

Ключевые слова: этимология, ойконим, топоним, история, топонимия, Бабур, Бабурнамэ, гора, перевал, смысль, сема, словарь.

Mustaqil vatanimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning *«Ma’naviyat o‘z xalqining tarixi, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi. Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo‘lmaganidek, o‘z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo‘lmaydi»,* -degan fikri xalqimizning boy toponimiyasiga ham dahldor [Karimov I., 1992, 71].

Zahiriddin Muhammad Boburning shoh asari sifatida “Boburnoma” ni alohida e’tirof etish lozim. Taniqli olim V.Rahmonov Bobur Mirzo faoliyatining qirralarini ta’riflab yozadi: “Boburnoma” kitobxonga din va shariat, etnografiya, insonshunoslik, astronomiya, tabobat, harbiy ilm, xalq og‘zaki ijodi, matematika, bog‘shunoslik, shahar qurilishi, tush ta’birigacha o‘nlab ilmlardan muhim va qiziqarli ma’lumotlar beradi. Bu asar mazmuni, voqealariga e’tibor qilgan ziyrak kitobxon “Boburning qiziqmagan va bilmagan sohasi qolmagan ekan” degan hayratli xulosaga keladi. Darhaqiqat, bu ajoyib fazilatlar uning ko‘p qirrali faoliyatiga xos va mosdir” [Boburnoma. So‘zboshi, 2017, –B.7].

Asarda ma’lumotlarning turli-tumanligi va ularning ko‘plab sohalarga mansubligini inobatga olsak, “Vaqoe” – “Boburnoma”ni qomusiy-ensiklopedik asar deyish mumkin. Unda XV asrning oxiri XVI asrning birinchi yarimlarigacha Xuroson, Movarounnnahr, Hindistonda kechgan muhim tarixiy voqealar, ijtimoiy-iqtisodiy,

siyosiy vaziyat o‘z aksini topgan. “Boburnoma” undagi tarixiy shaxslarning ko‘pligi, sulolalar, saltanatlar taraqqiysi va tanazzulini yorituvchi ilmiy faktlar, urushlar tarixi va tasviri, davlatlararo munosabatlar yilnomasi sifatida qimmatli tarixiy manbadir. “Boburnoma” badiiy, tarixiy, yodnoma asar sifatida adabiyotshunos va tarixchi, tilshunos va urfshunos, tibbiyot va jug‘rofiya sohasi, shuningdek, yana bir qator mutaxasssislarga qimmatli ma’lumotlar bera oluvchi bebaho xazinadir. Shuning uchun ham bu asar turli davrlarda yashab, turfa tillarda so‘zlashgan sharqshunoslar diqqatini jalb etdi. Asarda tarixiy voqea va hodisalarning yuz berish sababi va oqibatlari keng qamrovda talqin etilgan. Bobur asarda tilning fonetika, etimologiya va boshqa bir necha sohalariga oid qiziqishlari va ilmiy kuzatishlarini bayon etgan.

Muallif shahar va joy nomlarini tavsiflab, ularning nomlanish sababiga e’tibor qaratgan. Jumladan, Qarshi shahri haqida: “Qarshi viloyatidurkim, Nasaf va Naxshab ham derlar, Qarshi mo‘g‘ulcha ottur, go‘rxonani mo‘g‘ul tili bila qarshi derlar. G‘olibo bu ot Chingizxon tasallutidin so‘ng bo‘lg‘ondur. Kam obroq yerdur, bahori xub bo‘lur, ekini va qovuni yaxshi bo‘lur” [Boburnoma, 1989, –B. 47]. Atoqli toponimist olim S.Qorayev qadimgi turk tilida qarshi “ko‘shk”, “saroy”, “xon qarorgohi” demak. Lekin XV-XVI asrlarda bu so‘z “mo‘tabar shaxslar qabriga qurilgan dahma maqbara” ma’nosini olgan, deya qayd etgan [Qorayev S. 2006, –B.310].

Shahrisabz shahri nomining kelib chiqishini muallif quyidagicha izohlaydi: “Bahorlar sahrosi va shahri va bomi va tomi xo‘b sabz bo‘lur uchun Shahrsabz ham derlar” [Boburnoma, 1989, –B. 47].

“Kandibodomdur agarchi qasaba emas, yaxshig‘ina qasabachadur. Bodomi yaxshi bo‘lur. Bu jihatdin bu ismg‘a mavsumdur. Xurmuz va Hindustong‘a tamom muning bodomi borur” [Boburnoma, 1989, –B. 47].

Boburning Kandibodom haqidagi ushbu fikri diqqatga loyiqdir. Konibodom hozirgi Tojikiston Respublikasi Sug‘d viloyatidagi shahar bo‘lib, Farg‘ona vodiysining g‘arbiy qismida, Katta Farg‘ona kanali bo‘yida joylashgan. Konibodom 1463-yildan Kandibodom deb tilga olinadi. Ba’zi adabiyotlarga ko‘ra, Konibodom IX-X asrlardan ma’lum.

Shuningdek, Konigil o‘langi xususida ham bir necha fikrlarga duch kelamiz. S.Qorayev ma’lumotlarida *Koni gil – tuproq koni* desalar, boshqalar, chunonchi, Fazlulloh bin Ro‘zbexon “Mehmonomayi Buxoro” asarida *Koni gul,* ya’ni *“gullar koni”* deyiladi. Bobur esa “o‘langning oti Koni obgir” deb yozadi. Bu esa haqiqatga yaqin. Chunki Siyob suvining “atrofi tamom obgir”, ya’ni botqoq bo‘lgan (obgir atamasi “Boburnoma”da bir necha joyda uchraydi) Demak, Koniobgir asta-sekin o‘zgarib Konigil shaklini olgan [Qoprayev S. 2006, –B.310].

“Boburnoma”da G‘urband tumani nomi haqidagi fikrlar ham e’tiborga loyiq: “Yana bir G‘urband tumanidur. Ul viloyatlarda ko‘tallarni band derlar G‘o‘r sari bu

ko‘tal bila borurlar, g‘olibo ul jihatdin G‘urband debturlar” [Boburnoma, 1989, –B. 123].

Bobur bandning ko‘tal deb aytilishini ko‘rsatgan. Ko‘tal – “dovon”, “tog‘ yo‘li”. Shuningdek, O‘zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Afg‘oniston, Eron va Ozarbayjonda ko‘tal, ko‘tel, xutel shakllarida joy nomlari tarkibida uchraydigan geografik atama. Ko‘tal so‘zi ham dovon atamasi kabi mo‘g‘ulcha degan fikr bor. Ko‘tal pastroq dovonni bildiradi [Qorayev S. 2006, –B.197].

Bu atama haqidagi to‘liqroq ma’lumot M.Normurodov va T.Nafasovlarning «Chiroqchinoma» kitobida uchraydi: *ko‘tal* termini quyidagicha izohlanadi: “Tog‘li tumanlar aholisi oshib o‘tiladigan yo‘li bo‘lgan balandlik – kichik dovon, tog‘ning kichik tizmasi, yuksak qirni ko‘tal deyishadi. Bu atama fors va tojik tillariga ham o‘tgan. Tojik tilida ko‘tal – baland tepa; dovon (ag‘ba). Fors tilida ko‘tal – tog‘ yo‘li, dovon. Tojikiston va Qirg‘izistonda ko‘tal so‘zli joy nomlari ko‘p. Bobur “*...yo‘l yasab dovon ustiga chiqtuk. Ko‘tali Zarin* der emishlar” deb yozgan. Ko‘tal turkiy va mo‘g‘ul tillariga xos so‘z. Mo‘g‘ul tilida *xo‘to‘l* – tepa, uncha yuksak bo‘lmagan qiya balandlik” [Normurodov M., Nafasov T. 2010, –B.23].

Band – O‘zbekiston va Tojikistonda joy nomlari tarkibida uchraydigan atama. Bir necha ma’noda keladi: 1) bandi ob – to‘g‘on (Abdullaxon bandi, Xonbandi); 2) bandi reg – qum to‘sig‘i, ko‘chma qum yo‘lidagi har xil to‘siqlar, 3) bandi mufsidon – fitnachilar, qo‘zg‘olonchilardan saqlanish uchun qurilgan g‘or, devor. Band, avvalo, irrigatsion atama; tog‘ daralariga qurilgan qadimiy gidrotexnik inshoot band deyilgan [Qorayev S. 2006, –B.170].

Bobur yozadi: “Sulton Mahmudning qabri G‘aznining mahallotidadurkim, sulton qabri anda uchun Ravza derlar. G‘aznining yaxshi uzumi Ravzadindur. Avlodi: Sulton Mas’ud bila Sulton Ibrohimning qabri ham G‘aznidadur. Mutabarrak mazorat G‘aznida bisyordur” [Boburnoma, 1989, –B. 126].

Ravza so‘zi hozir ham qo‘llanadi: ravza [a] esk. kt. 1. Gulzor, gulshan; bog‘. 2. din. Jannat, behisht. 3. Ravza (xotin-qizlar ismi) [O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 1981 (1), –B.610].

So‘z etimologiyasi joy nomiga nisbatan tekshirilganda Bobur o‘sha so‘zning yasalishi va nom qo‘yilishiga tarixan yondashadi:

“Samarqandning qal’asining ichida yana bir qadimiy imorattur, masjidi Laqlaqa derlar. Ul gunbazning o‘rtasida yerga tepsalar tamom gunbazdin laq-laq un kelur, g‘arib amerdur, hech kim muning sirrini bilmas… ushbu bog‘chada yana bir chordara solibdur, izorasi tamom chiniy. Chiniyxona derlar. Xitoydin kishi yiborib kelturubtur” [Boburnoma, 1989, –B. 45].

Bangash bilan Ningnahorni bog‘lab turuvchi Ko‘hi Safid (Oq tog‘)ning nomlanishidagi ushbu fikrlari ham e’tiborga loyiq: “Ko‘hi Safid Ningnahorning janubida voqe bo‘lubtur. Bangash bilan Ningnahorg‘a vosita ushbu tog‘dur Otliqqa

yo‘l yo‘qtur. To‘qqiz rud ushbu tog‘din chiqar, bu tog‘din hargiz o‘ksumas. Bu jihattin g‘olibo Ko‘hi Safid derlar” [Boburnoma, 1989, –B. 121].

Xuddi shunday tahlil boshqa o‘rinda ham kuzatiladi: “…bu yo‘l otliq yo‘li emas ekandur. Qo‘ychi va cho‘pon gohi gala va ramani bu yo‘l va tangi bila indurur uchun bu yo‘lni, Go‘spandliyor der emishlar. Yo‘lni afg‘on tilibila liyor derlar” [Boburnoma, 1989, –B. 134].

Yoki “Sharq soyig‘i zil’ining burjida Hotiypuldur. Filni “hotiy” derlar, darvozani “pul”. Bu darvozaning chiqishida bir filning suratini mujassam qilibturlar, ustida ikki filbon ham qilibturlar: biaynihi fil, xeyli mushobih qilibturlar. Bu jihattin “Hotiypul”derlar” [Boburnoma, 1989, –B. 313].

Yana “Bozorak ko‘talini Sarob eli Porandiy otliq kentiga inar uchun Porandiy ko‘tali derlar, Yana bir parvon yo‘lidur, ulug‘ ko‘tal bila Parvon orasida yana yetti ko‘tal bor uchun Haftbacha derlar” [Boburnoma, 1989, –B. 119].

Shuningdek, Bobur ayrim hududlarda ko‘ptillilik hodisasi uchrashini ham ta‘kidlab o‘tgan: “Muxtalif aqvom Kobul viloyatida bordur. Julgasida va tuzlarida atrok aymoq va a’robdur. Shahrida va ba’zi kentlarida sortlardur. Yana ba’zi kentlarida va viloyotida pashoyi va paroji va tojik va baraki va afg‘ondur. G‘azni tog‘larida hazora va nakdaridur. Bularning orasida ba’zi mo‘g‘uliy, til bila hikoyat qilurlar. O‘n bir-o‘n ikki lafz bila Kobul viloyatida talaffuz qilurlar: arabiy, forsiy, turkiy, mo‘g‘uliy, hindiy, afg‘oniy, pashoyi, parojiy, gabriy, barakiy, lamg‘oniy. Muncha muxtalif aqvom va mug‘oyir alfoz ma’lum emaskim, hech viloyatqa bo‘lg‘ay” [Boburnoma, 1989, –B. 120].

Shu o‘rinda Lamkon hududining Lamg‘on tarzida aytilishi ham shu el tilining talaffuzi bilan bog‘liq. Bobur bu el tilini mulohaza qilib quyidagicha keltiradi: “Hazrati Nuh payg‘ambarning otasi Mehtar Lomning qabri Alishang tumanidadur. Ba’zi tarixta Mehtar Lomni Lamak, Lamkon debturlar. Ul elni heyli muloha qilibturkim, ba’zi mahal “kof” o‘runig‘a “g‘ayn” talaffuz qilurlar, bu jihattin g‘olibo bu viloyatni Lamg‘on debturlar” [Boburnoma, 1989, –B. 121].

“Boburnoma”da Hindiston hududidagi Kashmir oykonimiga shunday izoh beriladi: “…bu tog‘ elini kas derlar. Xotirg‘a yettikim, Hinduston eli “shin” ni “sin” talaffuz qilur. Chun bu tog‘da mo‘tabar shahr Kashmirdur, balki Kashmirdin o‘zga bu tog‘da yana shahre eshitilmaydur. Bu jihattin bo‘la olurkim, Kashmir demish bo‘lg‘aylar” [Boburnoma, 1989, –B.250]. Aytilganlardan anglashiladiki, Kashmir kas etnonimiga aloqador holda vujudga kelgan etnooykonim, Lamg‘on shaxs nomi yuritilgan antropotoponim hisoblanadi.

Ko‘rib o‘tganimizdek, “Boburnoma” asari o‘lkamiz va boshqa yondosh hududlaridagi joy nomlarini o‘rganishda asosiy material bo‘la oladi. Undagi har bir ma’lumotlar muhim ahamiyatga ega. Bobur tilshunos sifatida til birliklarining nozik jihatlari, ma’no qirralariga alohida e’tibor bilan qaragan. Shuningdek, uning bayon

etgan qarashlari, bildirgan fikrlari ona tilimizning boy imkoniyatlari, tarixi hamda beqioys madaniyatidan darak beradigan tengsiz xazinadir. Bu holat barcha o‘z yurtini e’zozlaydigan insonlar uchun faxr tuyg‘usini bag‘ishlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б.71.
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи П.Шамсиев. –Т.: Юлдузча, 1989. – 367 б.
3. Kilichev B.E A way of making words on proper nouns// International Journal on Integrated Education Volume 3, Issue II, Feb 2020. p. 96-98.
4. Kilichev B.E., Safarova M.Z. Bukhara region’s typical toponyms transformed by means the names of nations. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. Philadelphia, USA. 2021 02 94.
5. Kilichev B.E., Safarova M.Z. International Journals of Sciences and High Technologies. Vol. 25 No. 1 February 2021, pp. 104-107.
6. Kilichev B.E., Safarova O. Study of toponyms in the language of the work. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915. Vol.10/ Issue 1, Jan. (2022) 92–95.
7. Kilichev B.E., Bafoyeva N. A. Some characteristics of onomastic units in Abdullah Qodiriy's novel “Bygone days” Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. ISSN: 2249-7315 Vol. 12, Issue 01, January 2022
8. Kilichev Bayramali, Khojaoglu Timur, Adizova Nodira Classification of Oykons (On the Example of Bukhara Region) International Journal of Culture and Modernity ISSN 2697-2131, 2022, Volume 16 https://ijcm.academicjournal.io/index.php/ijcm.
9. Нормуродов М., Нафасов Т. Чирокчинома. – Тошкент: Муҳаррир, 2010. – Б.23.
10. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. –T.: O‘qituvchi, 2017. – 366 b.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик. 1-том. –М.: Рус тили, 1981. – 631 б.
12. Qorayev S. Toponimika. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamayati, 2006. – 318 b.